



# Raqs LAM

RAQS BU-GO'ZALLIK, SO'ZSIZ MULOQOT...

MA'NAVIY-MA'RIFIY,  
ILMIY-AMALIY,  
AXBOROT GAZETASI

2024-YIL  
MART



Gazeta  
2020-yildan  
chiqa  
boshlagan.

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI



Orzular  
MAQSADGA AYLANS...

xoreografiya akademiyasi uchun o'zgacha bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'ljamiz. Sababi, akademiyamizning xoreografiya san'ati fakulteti 1-kurs talabasi Yelizaveta Trashkova va akademiyamizning Urganch filialining 2-kurs talabasi Risolat Sapayevalar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldilar.

— Bu yilgi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar safida o'zimni ko'rib qanchalar xur-sand bo'lganimni tasvirlab

bera olmayman, — deydi Yelizaveta Trashkova. Bugun mukofotni Prezidentimidan shaxsan qabul qilganim undan ham quvonchli bo'ldi. Menga bildirilgan mas'uliyat yukini his qilayman. Endi yana-da yaxshi o'qishim, izlanishim kerak.

— Men bugun shuni angladimki, inson faqat orzu bilan cheklanib qolmasligi, unga erishish uchun qat'iy maqsadi bo'lishi va shunga mos mehnat qilishi kerak ekan, — deydi, Risolat Sapayeva — Va bu vaqt kelib o'z natijasini beradi. Men bugun bolalikdagi oruzimga erishgan bo'lsm-da, bu bilan to'xtab qolmoqchi emasman.

Toshkent shahridagi Xalqaro kongress markazi yil davomida nufuzli uchrashuvlar, xalqaro anjumanlarga mezbonlik qiladi. Bu yerda 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Mamlakatimiz ayollariga tabrik yo'lladi.

Farzandini dunyoga keltirib, oq sut bergen, mehrini ayamay voyaga yetkazgan ona siymosi har qancha hurmat qilinsa, shuncha oz. Tadbirda inson qadrini ulug'lash, avvalo, azizu mukarrama ayollarimizni ulug'-lashdan boshlanishi kerakligi ta'kidlandi.

Bugalgi bayram O'zbekiston davlat

## AKADEMIYANING XALQARO ALOQALARI YANADA KENGAYMOQDA




Kuni kecha, 11-mart kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasiga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jam'armasi taklifiga binoan A.Ya. Vaganova nomidagi Rossiya balet akademiyasi delegatsiyasi: rektor yordamchisi Vitaliy Leonidovich Vilenskiy, xalqaro kafedra mudiri Igor Sergeevich Garanin hamda klassik va duet-klassik raqs kafedrasi katta o'qituvchisi Miotsi Feton tashrif buyurdi.



Uchrashuv davomida mehmonlar akademiyada yaratilgan sharoitlar, o'quv xonalari, raqs zallari undagi qulayliklar bilan tanishdilar, shuningdek, akademiyalar o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi doirasida hamkorlikni yanada kengaytirish va sheriklik aloqalarini mustahkamlash borasidagi istiqbolli rejalar muhokama qilindi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mu-kofotlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrasi dotsenti Iskandarovna Roza Raxmanovna "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.



## AYOL BORKI...



yugori bo'ladi. Boisi, 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni yurtimizning har bir go'shasida, muassasa va tashkilotlarida, mahalla va xonardonlarda o'zgacha ko'tarinki ruhda nishonlandi. Jumladan, kuni kecha akademiyamizda Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab tadbir bo'lib o'tdi. Unda san'atkorlar, mehmonlar ishtirok etishdi. Kuy-qo'shiqlarga ulangan raqlar barchaga

ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Shuningdek, bayram arafasida akademiya talabalari o'rtasida milliy urf-odatlar, qadriyatlarni yanada kuchaytirish va yoshlarga singdirish maqsadida kafedralar aro "Milliy qadriyatlar - ma'naviyat ko'zgusi" shiori ostida "Osh championati" ko'rik-tanlovi bilan boshlandi.

Championatda "Xoreografiya jamoalari rahbari", "Xoreografiya pedagogikasi", "San'at nazariysi va tarixi" kafedralari professor-o'qituvchilari hamda dekanat xodimlar faol ishtirok etishdi.



Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi roli, o'rni va nufuzini mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasidagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, yurtimizda yangilanish va yasharish fasli bahorning kirib kelishi bilan ayollarimizga, opa-singillarimizga bo'lgan e'tibor har qachongidanda

## USHBU SONDA

Orzular  
MAQSADGA AYLANS...

«ЩЕЛКУНЧИК»  
В НОВОМ РАКУРСЕ

SIRDARYONING  
SAVATCHI QIZLARI

Ona  
Giz...

O'ZBEKCHA RAQSNI  
nega unutdik?



## «ЩЕЛКУНЧИК» В НОВОМ РАКУРСЕ



В Государственного академического Большого театра имени Алишера Навои прошёл премьерный показ обновлённой версии балета «Щелкунчик» на музыку П.И. Чайковского.

Впервые спектакль был показан в Ташкенте в 1993 году. Версия этого балета исполнялась на сцене Большого театра имени Алишера Навои в течение 30 лет. В 2023 году, по инициативе Фонда развития культуры и искусства Узбекистана, для артистов Национального балета Узбекистана была поставлена новая версия этого балетного спектакля. Постановку балета осуществил лауреат российской национальной театральной премии «Золотая маска» (2021), хореограф Мариинского театра (Россия, г. Санкт-Петербург) Максим Петров, стремившийся сохранить традиционную праздничную тему спектакля, погружая героев в мир волшебства.

Для постановки балета были приглашены ведущие творческие силы Узбекистана и российские постановщики, известные своими работами для Большого театра, Мариинского театра и «Урал Оперы Балета». Спектакль осуществлён благодаря сотрудничеству известных российских поста-новщиков и творческого кол-лектива ГАБТ имени Алишера Навои при участии Детского хора музыкальной школы имени Успенского, детского хорового и танцевального ансамбля «Булбулча» и Национального симфонического оркестра под управлением Алибека Кабдурахманова.

На пресс-конференции, состоявшейся накануне премьеры, Максим Петров рассказал о том, что «предложение поставить «Щелкунчик» в Большом театре имени Алишера Навои поступило от Фонда развития культуры искусства Узбекистана. Мы делаем спектакль, основываясь на местном колорите, нам очень интересно было приехать в Узбекистан и изучить культуру, посмотреть, как мы можем её преобразить, пропустить через себя и сделать на её основе спектакль, поэтому в нашем спектакле очень много национальных узоров, на основе которых сделана сценография, например суперзанавес и фасад кукольного

домика, этот же узор переходит на костюмы. Для нас это было очень важно. У нас в спектакле немножко другой взгляд на происходящее, мы смотрим весь спектакль глазами Маши и всё, что происходит, это на самом деле её фантазия. На сцене появляется кукольный домик, который ей уже не интересен, из которого она выросла, ей не интересны игрушки. Наша Маша старше чем принято, это не маленькая девочка, это уже подросток 16-17 лет, у которого уже совершенно другие мысли, другие интересы, поэтому мир вокруг неё совершенно другой. Самая главная граница - это музикальный материал, не хочется ему перечитывать, хочется идти за ним, и прежде всего, мы выстраивали спектакль под Петра Ильича, под то, как он написал музыку и что мы можем предложить, что мы можем сказать про эту музыку, как мы можем её услышать иначе. Нам не столь важен сам новогодний дух, сколько атмосфера Машиного восприятия на всё происходящее, ей не очень интересен праздник, ей интересен свой внутренний мир, и поэтому Новый год у нас чуть-чуть в стороне в этом спектакле, но, конечно, он присутствует - это гости которые приходят в дом Машиных родителей, которые посещают его очень часто, но в этот дом не приводят детей, поэтому Маше довольно скучно.

Художник-постановщик балета Щелкунчик Степан Лукьянов рассказал на пресс-конференции о создании декораций для обновлённого балета: «Мы не хотели в очередной раз делать просто обычную сладкую сказку, мы воссоздаем такое космическое пространство, которое в какой-то момент засахаривается, покрывается сахарной оболочкой. Это образ, который в классическом либретто прописан как конфитюрнбург - конфитюрная страна, у нас это сахарная страна, это сахарный мир, который потом раскрывается, весь сахар-рафинад улетает в космос и мы оказываемся в космическом пространстве».

Главная идея создателей спектакля заключалась в том, чтобы привнести в новую версию балета узбекские мотивы - традиционный

орнамент на занавесе и в декоре костюмов, звёздное небо как символ многовековых традиций астрономии и математики, белоснежные кубы - олицетворение местной архитектуры, а именно минаретов, сотовым сводам, которые украшают старинные узбекские здания.

«Большая работа была проделана над созданием костюмов. Было подготовлено 142 костюма на все составы. Художники по костюмам начали работать над эскизами ещё с весны. Создание костюмов было сложным, а сложность эта заключалась в том, что часть костюмов – это печатные ткани, это не ткани которые можно было где-нибудь купить, а эти ткани, которые напечатаны принтом, который из декорации. Часть костюмов имеет светодиодную подсветку, это большая работа, так как вшить в костюм светодиоды и следить чтобы ничего не мигало нелегко. Было принято решение что мы будем шить в Москве, создание костюмов осуществлялось в мастерской «Главкостюм».

Надо отдать должное этим людям, потому что работало много команд, у нас было команд пятьдесят, и у всех было огромное количество костюмов со своими нюансами. Но с большой любовью и с большим трудом мы все осилили и привезли сюда. У нас были огромные деревянные ящики, в которых мы везли парики, головные уборы, отдельно везли все маски мышей – это достаточно объёмная вещь, для этого нужно большое количество места, в 15 чемоданах везлась бутафория и мелкие вещи», - рассказала художник по костюмам Юлиана Лайкова.

Фонд развития культуры и искус-

ства Узбекистана организовал социальные показы балета, они прошли в дневное время для детей и подростков подопечных социальных учреждений, детских домов и интернатов со всей Республики.

«Щелкунчика» в постановке Максима Петрова на сцене Государственного академического Большого театра имени Алишера Навои – это балетный спектакль, выполненный в новой интерпретации и ориентированный на современное восприятие классического спектакля. Действия разворачиваются в двух актах. Сценарий подчёркивает темы мечты и волшебства.

Я посетила обновлённый спектакль «Щелкунчик» и хочу сказать, что поддерживаю больше классическую версию «Щелкунчика», ведь это мировое наследие. Сказка Теодора Амадея Гофмана известна всем и олицетворяет наше детство. В обновлённом балете, мне бы очень хотелось увидеть танцы кукол народов мира, больше вариаций, услышать полную музыкальную версию балета «Щелкунчик» П.И.Чайковского. Также хотелось бы видеть на сцене детский танец, который исполняли учащиеся хореографической школы, ведь это большая практика и колossalный опыт работы на сцене для детей, которого в этом балете им не удалось испытать. Хотелось бы, чтобы сказочный мир Маши, в котором она побывала, остался сказкой, прекрасным сном.

**Камилла Куранбаева**  
студентка 2 курса отделения  
«Профессиональное  
образование»

## XOREOGRIFIYA SOHASINING O'QITISH JARAYONIDA KLASSIK RAQSNING AHAMIYATI



Klassik raqs barcha sahna raqs-larining asosidir. Klassik raqs darslari - bu muskullar, bo'g'lnlarni cho'zish, kuchaytirish va raqs amaliyotiga tayyorlashga qaratilgan raqs harakatlarini sinchkovlik bilan o'r-gatish, tanangizdagi kundalik mashqlar. Uzoq tarix davomida klassik raqs nafaqat balet raqqosalari, balki xoreografik san'atning boshqa janrlari ijrochilar uchun ham o'ziga xos atama va ta'lim tizimini ishlab chiqdi va tasdiqladi. Balet xoreografiyasining sportchi-raqqosalari ham bundan mustasno emas, ularni tayyorlash jarayonida klassik raqs mashg'ulotlari istalgan sport natijalariga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Ekzersis mashg'ulotning asosiy shakkilardan biri jismoniy mashqlar (frantsuztilidan tarjimasi - mashq) - bu raqs texnikasi uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarni rivojlantiradigan dastgox oldida va zalning o'ttasida raqs darsining harakatlar guruhlari tizimi, oyoq mushaklarining egilishi va kuchi, tanani to'g'ri joylashtirish, qo'llar va bosh, barqarorlik, harakatlarni muvofiqlashdirish. O'qituvchi va talabaning individual resurslari bilan belgilanadigan ko'p bosqichli ta'lim

bo'lib, ekzersis o'quv mashqlari tizimidan iborat bo'lib, ularning kombinatsiyasi va o'zgarishi sizni takomillashtirish va saqlashga imkon beradi. Tayanch-harakat tizimi, ijro mahoratini, texnik imkoniyatlarini, psixologik xususiyatlari va shaxsiy xususiyatlarini (xotira, tasavvur, fikrash, iroda, kombinatsion qobiliyat va boshqalar) rivojlantiradi. Ijrochilar tomonidan klassik raqsni o'rganish qo'llar, oyoqlar va tana tuzilishining asosiy holatlarini o'rganishdan boshlanadi.

Xoreograf mashg'ulot jarayonida klassik mashg'ulot darslari har xil turdag'i "por de bras" bilan birgalikda demi-pliye va grand-pliye bilan boshlanishi kerak. Ishga bir vaqtning o'zida ikkala oyoq va butun tanani kiritish muhimdir. Demi-pliye, oyoq paylarini cho'zadi, oyoqni unga keyingi murakkab harakatga tayyorlaydi, grand-pliye sonning egilishida ishlaydigan mushaklarni cho'zadi va kuchaytiradi. Klassik raqs mashqlari jarayonida mushaklar nafaqat mashq qiladi, balki faol va doimiy ravishda cho'ziladi va mushaklarning barcha qatlamlari ishlaydi.

Klassik raqsni o'rganish uchun sak-►



kiz yillik o'quv dasturida ajratilgan vaqt haftasiga o'n ikki akademik soatga teng bo'lishi kerak. Klassik raqs darsligi ko'proq bo'lishi zarur, chunki bu fan xoreografik ta'lif tizimida boshqa raqs fanlari orasida yetakchi o'rinniyegallaydi, yuqorida aytib o'tilganidek, teatr xoreografiyasining boshqa janrlarida klassik raqsning ko'plab yekspresiv vositalardan ijobjiy foydalanish bilan bog'lilq.

**Klassik darsda stanok oldi va zal ortasidagi ekzersizning ketma - ketligi quyidagicha bo'lishi mumkin:**

1. Grand plié.

2. Battement tendu va unning turli xillari.

3. Battement tendu jete.

4. Rond de jambe par terre.

5. Battement fondu va battements soutenus.

6. Battements frappés va unning turli xillari.

7. Rond de jambe en l'air.

8. Petit battement sur le cou-de-pied.

9. Battement relevé lent va battements développés.

10. Grand battement jeté.

Ularning ichiga yana turli xil pozalar, port de bras lar, raqs qadamlari, piruetlar kiradi. Ekzersiz harakatlari sekin - asta o'quvchining bajarish faoliyati va ustozning shaxsiy uslubiga qarab murakkablashtirilib boriladi.


Klassik raqs darslarining o'ziga xos xususiyatlari raqqosaning texnikasining xususiyatlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, masalan, ijrochilar va balet raqqosalari uchun qo'llab-quvvatlovchi oyoqning xolati boshqacha. Balet raqqosalari uchun klassik mashqlarni bajarishning zaruriy sharti oyoqlarning birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi pozitsiyalaridan mashqlarni bajarishdir (uchinchini pozitsiya yordamchi hisoblanadi). Boshqa raqlarida bunday ishtirok etish nafaqat maqsadga

muvofiq emas, balki zararli hamdir, chunki Yevropa dasturining o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda, qo'llab-quvvatlovchi va erkin oyoqlarni joylashtirish mumkin emas, chunki ular oyoqlarning parallel o'rnatilishini talab qiladi. Yuqorida keltirilgan harakatlarning har biri mushaklarning har bir qismiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi, qon aylanishini faollashtiradi va ichki organlarning ishiga yordam beradi, bo'g'imlarning harakatchanligini, mushaklar va elastikligini oshiradi, oyoqning yuk ko'taruvchi kamariga yuk tufayli tekis oyoqlarni engillashtiradi. Bu ijrochilarga - xoreograflarga Lotin Amerikasi dasturidagi raqlarda (Samba, Cha-cha-cha, Rumba, Paso Doble) o'z tanalarini erkin boshqarish imkonini beradi. Klassik mashg'ulotlar jarayonida aplomb - tananing barcha qismlarini muvozanatda saqlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida Yevropa dasturining raqlarini (Slow Vals, Tango, Quickstep, Vena Valsi) ijro etishda ijobjiydir.

Klassik mashqlar quyidagilarga yordam beradi: jismoniy, jismoniy va aqliy xotirjamlikni shakllantirish, mushaklarning kuchini, moslashuvchanligini va elastikligini rivojlanish; harakatlarni muvofiqlashtirishni yaxshilash; ritm tuyg'usini rivojlanish; vestibulyar apparatlarning rivojlanishi, raqqosning polda barqarorligi va har qanday vaziyatda muvozanatni saqlash. Biroq, oyoq, qo'l, bosh, tananing o'zaro bog'lilq harakatlarining turli xil muvofiqlashtirilishi, shuningdek, tananing butun yuqori qismining chiroyli chiziqlari va ekspressiv plastikasini tashkil qilish bilan tanishish muhim roq ko'rinishi. Klassik mashqlarning harakatlari raqqosaning tanasini tartibli, harakatchan va chiroyli qilib, uni boshqariladigan shaklga aylantirish uchun mo'ljallangan.

**Yulduzoy Toshmatova  
"Kasb ta'lif" yo'nalishi talabasi**

*Ona siz...*



Ona — mehribon, jonkuyar, oqko'ngil, pazanda, mehnatkash, matonatli, sabrili.... Aslida bu so'zni ta'riflashga barcha so'zlar kamlik qiladi.

Ona qadrini tushunish uchun uni yo'qotish yoki o'zi ona bo'lishini kutish shart emas. Sizga berilgan umringiz davomida sizni hech bir sabablarsiz, manfaatlarsiz, sovg'alarsiz hatto bir og'iz shirin so'zingizsiz sevadigan yakkayu yagona inson, busizning validangiz.

Gohida hayron bo'laman, ayrim

ko'satuvlarda yo'lovchilardan onasiga qo'ng'iroq qilib yaxshi ko'rishini aytishini so'rashsa, ayrimlar men bunday qilolmayman deydi. Ammo vaqt va inson g'animat. Bu so'lzarni qabr boshida aytishni istamasangiz, hoziroq onangizga ularni yaxshi ko'rishingizni aytishni unutmang.

**Durdona Ubaydullayeva,  
"San'atshunoslik" ta'lif yo'nalishi  
3-kurs talabasi**

## SIRDARYONING SAVATCHI QIZLARI



O'sib kelayotgan yosh avlod ong-u shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma'nnaviy kamolotga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rni hamda ahamiyati beqiyos. Milliy raqlarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlarini, insoniy fazilatlari, milliy an'analari ifodalanadi.

"Muhtaram Prezidentimizning rahnamoligida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan odilona siyosati, hamda sizning biz madaniyat xodimlari, barcha san'atkorlar hamda fidoiy ijodkorlarga e'tiboringiz va ularni qo'llab quvvatlashingiz tufayli katta muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqdamiz"-deya ta'kidlaydi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Asatillo Xoliqov.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Asatillo Xoliqov va umr yo'ldoshi Barxonon Xoliqova bilan birgalikda barcha fidoiy insonlar qatorida o'z ijodiy faoliyatini boshlaganiga ham roppa-rosa 42 yil bo'ldi. Toshkent Xoreografiya Oliy maktabini 1980 yilda tamomlab Sirdaryo viloyatiga yo'ilanma bilan kelgan, mohir baletmeyster, o'zbek milliy raqs san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, o'z kasbining haqiqiy ustasi, pedagog – xoreograf Xoliqova Baro nohozirgi kunda O'zbekiston davlat filarmoniysi Sirdaryo viloyati bo'linmasi baletmeysteri va shu bilan bir qatorda Guliston shahar musiqa va san'at maktabida raqs sinfi o'qituvchisi sifatida yillar davomida orttirgan tajribalari va faol mehnat faoliyati orqali ko'plab shogirdlariga milliy raqs san'ati sirlarini mukammal o'rgatib kelmoqda. Barxonon Xoliqova Sirdaryo raqs maktabini yaralishiga asos soldi va shu muktab asosida professional raqqosalar guruhini tashkil etdi. Barxonon Xoliqovaning o'z raqs maktabi borligi evaziga Sirdaryo raqqosalar o'rni bo'shab qolayotgani yo'q. Orqama orqa birin ketin iqtidorli raqqosalar chiqib kelmoqda. Bu esa bo'lib o'tayotgan bir qator tanlovlari, festivallar va tadbirlarda o'z aksini ko'rsatmoqda. Barxonon Xoliqova tashabbusi bilan 1990 yilda Madaniyat boshqarmasi qoshidagi "Manzur" ashula va raqs ansamblida raqqosalar guruhini tashkiletgan.

1998 yil Sirdaryo viloyatida ilk bora, B.Xoliqova ustozligida, raqs san'ati sohasida uzoq yillar tarbiyalangan va tinimsiz izlanishlar natijasida voyaga yetgan mahoratli raqqosalar bazasida, raqs guruhi "O'zbek raqs viloyat bo'limi" tashkiletildi.

2009 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Barxonon Xoliqova "Xalq ta'limi a'lanchisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Yana bir quvonarli taraflaridan biri bu, mamlakatimizning barcha viloyatlari kabi Sirdaryoda ham san'atning barcha turlari qatorida folklor raqlarini sahnalashtirish, qayta tiklash va rivojlantirish borasida keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda edi.

"Sirdaryo navolari" ansamblining dunyo kezib yurgan "Sirdaryo savatchi qizlari" kompozitsiyasi, aslida "Savat

to'qish" bolalar folklor raqsi zami ridge yaratilganligini eshitib, lol qolasiz ba'zida. Uch qismidan iborat "Savat to'qish" folklor raqslida ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlari, milliy qadriyatlarimiz, O'zbek xalqining insonparvarligi, bag'rikengligi va bolalarcha be'ubor tuyg'ular uyg'unligida tarannum etiladi.

"Bolaligimda qiziq bir rivoyat eshitganman. Aytishlaricha, uzoq safarga otlangan bir hunarmand yo'lda ketayotib, biroz dam olish maqsadida Sirdaryo qirg'og'ida to'xtaydi va tabiatning qo'li bilan chizilgan sehrdan hayratga tushgan hunarmand xurjunidan bo'yoqlarini olib, Sirdaryo mavjalarida ko'ringan gul va naqshlarni matoga ko'chiradi. Keyin uni xonga olib boradi va betakror ranglarga maftun bo'lgan xon bu go'zallikni "Atlas" deb nomlaydi. Shundan keyin xon saroyida rang – barang matodan libos kiyish urf bo'ladi. Oddiy fuqarolar esa oq tusli atlasdan foydalanishadi. Shu tarzda rangli mato "Xonatlas" nomini oladi va juda tez ommalashadi. Ko'pchilik bu rivoyatni atlas makoni Marg'ilon bilan bog'laydi. Lekin men bolaligimda atlas liboslarini yaxshi ko'radigan buvimdan aynan atlas makoni Sirdaryo deb eshitganman. Shuning uchun biz "Savatchi qizlar" raqslida asosan yorqin atlas va oq rangli adres liboslardan foydalanamiz" – deya so'zlab beradi "Sirdaryo g'unchalari" badiiy rahbari, Respublika xalq ta'lim a'lanchisi Barxonon Xoliqova.

2016-2019 yillarda Xitoy va Tailand davlatlarida 20 dan ortiq davlatlar ishtirokida bo'lib o'tgan, Xalqaro san'at festivallarida "Sirdaryo navolari" ansamblining "Savatchi qizlar" raqsi oly o'ringa munosib deb topildi. Sirdaryolik raqqosa qizlar savat orqali xalqlar orasida anchagina nom qozonishga erishdi. Bundan tashqari mohir baletmeyster tomonidan sahnalashtirilgan mumtoz raqlar, folklor kompozitsiyalari 2010 va 2022 yillar oraliq'ida Rossiya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Shvet-sariya, Malayziya, Koreya, Xitoy va shu kabi bir qancha davlatlarining nufuzli sahnalarida qayta-qayta namoyish etilib, xorijlik tomoshabinlar o'lqishlari va muhabbatlariga sazovor bo'ldi.

Eng muhimmi, Sirdaryo savatlari, Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan yangi O'zbekistonning umuminsoniy qadriyatlarini kengaytirmoqda. Eng munavvar milliy qadriyatlarimizni namoyon qilguvchi milliy raqs san'atimizning, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir.

**Bekmurod Qosimov,  
"San'atshunoslik" ta'lif  
yo'nalishi  
4-kurs talabasi**

Ona

Ona! Bu so'zni eshitishim bilan ko'z o'ngimda mehribonim namoyon bo'ladi. Aslida hammaga o'zining onasi boshqacha qadrli bo'ladi. Ammo onam meni dunyoda ham madan ko'ra yaxshi tushunadigan, har qanday vaziyatda qo'llaydigan, o'zi yemay yedirgan, kiymay kiydirgan, nafaqat onalik qilgan, balki otamiz o'nini bosgan insondir.

Dadam vafot etganida men 5 yosh-da, ukam esa 2 yoshda edi.

Bugungi kungacha onam biz bilan birga qanchadan qancha qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Biroq hecham sinmadi. Barcha qiyinchiliklarni yengib o'tdi. O'zi o'qimagani uchun meni o'qishimni istadi. Imkonli boricha barcha sharoitlarni qilib berdi.

Bugun men talabaman. Bu kunlarni onam orziqib kutgandi. Kelajakdan umidlarim katta. Istardimki, dunyodagi barcha onalar baxtli bo'lishsin.

**Sevinch Quvatova,  
"San'atshunoslik" ta'lif yo'nalishi  
2-kurs talabasi**

## Ayriliq



1999 yil, 7 aprel. Chamasi 11:40. Men dunyoga keldim va onamning qornidan ayrildim. Inson bu hayotda yashash oson emasligini bilgani uchun ham dunyoga yig'lab kelsa kerak. Kunlar, yillar o'tdi. Ulg'aydim va o'zo'zidan bolaligimdan ayrildim. Erkaliklarimni, onamga qilgan xarxashalarimni esa yillar o'z domiga tortdi, qo'ydi. Kutil-maganda esa onam meni tashlab ketdi. Men endi onamdan ayrildim. Ko'plarga mehr berdim ammolardan ham ayrildim.

Ulg'aydim. Hayotga boshqacha ko'z bilan qaray boshladim. Kelajakdan umidlarim katta. Faqat bir narsa yonimda mehribonim onam yo'qligi xafa qiladi.

Hamma yaxshi kayfiyat bag'ishlab yurtimga bahor kirib keldi. Ayni bayram kunlari men ham onamni jon deb, tabriklagan bo'lardim. Bunday imkonim bo'lmasa-da, yurtimizdag'i barcha onajonlarni bayram bilan muborakbot etaman.

**Kamolabonu Hojiqulova,  
"San'atshunoslik" ta'lif yo'nalishi  
3-kurs talabasi**

# O'ZBEKCHA RAQSNI nega unutdik?

Yaqinda "Mushtum" jurnalining telegram rasmiy saytida jurnalist Said Boboyevning, "O'zbekcha raqsini nega unutdik" deb nomlangan ajoyib maqolaga ko'zim tushdi. Maqola fikr yuritishga, mulohaza qilib, xulosa qilishga arzulik maqola desam mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, unda ko'tarilgan mavzu-yu, muammoning dolzarbli aynan biz san'atshunoslarni o'yantirib, unga o'z munosabatini bildirishga muhtoj mavzu va muammolar tanlangan edi. Maqola taxminan quyidagicha edi...

...Yoshlar o'rtasida gruzincha, chechencha raqlar ommalashdi. Kim shu raqs elementlarini yaxshiroq eplasa, harakatlari o'xshasa, o'sha yigitcha bundan g'ururlanadigan ahvolga keldik...

**O'ZBEKCHA RAQSNI NEGA UNUTDIK?** ...Bilmadik, qachon va qay tarzda bu odad paydo bo'ldi, ammo yoshlar o'rtasida gruzincha, chechencha raqs ommalashdi. Kim shu raqs elementlarini yaxshiroq eplasa, harakatlari o'xshasa, o'sha yigitcha bundan g'ururlanadigan ahvolga keldik. Yomonmi? Albatta, bir qarashda beziyon. Naqd gap shuki, biz aslida boshqacharoq odamlar edik, yurak hovurini aks ettiradigan juda go'zal va noyob raqs san'atimiz bor edi. Qiziq, qayogqa g'oyib bo'ldi u? YouTubeni ko'ring. "Lazgi" deb qidiruvga bersangiz, yigitlar, ulfatlar shayton raqsiga o'xshagan, umuman tushunarsiz harakatlar bilan, shahvoni qiliqlar qo'shib eshilayotganini ko'rasiz. Holbuki, Xorazm san'atining gultoji bo'lgan "Lazgi" ohanglarida haqiqiy yigitlardek, chapani, g'ururli, beqiyos usullarga ega raqs yo'li bor edi. Bugun u davra, to'y-hashamlardan yo'qolib ketgan...

"Dilxiroj"ni oling. Aslida bu haqiqiy ulfatlar davrasidagi vaziyatni namoyon qiladigan raqs turi. Laganda osh ko'tarib kiradigan yigit do'stlarini raqsga chorlaydi, taomdan avval besh daqiqo davra qurib o'yin ko'rsatadi, ammotaomga gardyuqmaydi, bir dona guruch to'kilmaydi, buning zavqiga boshqalar ham qo'shilib raqsga beriladi... Ammo, bugun "Dilxiroj" o'zbek yigitlarining raqs uslubi sifatida deyarli yo'qolib ketgan. Rasmiy tadbirda diplomli raqqoslar o'ynaydi, qarsak chalamiz va shu bilan tugadi: salom "Lezginka", salom Kavkazcharaqs".

"Andijon polkasi" esingizdami? Orif Toshmatov kuy yaratdi, Abdug'affor Qodirov raqs yo'lini topdi va bu kuy, raqs misli ko'rilmagan darajada ommalashdi. Yigitman deganning yetmish ikki suyagini o'ynatib, vujudini yayratadigan, o'ziga yarashadigan, usullari ham juda yarashiqli bir raqs bu. Ammo, nimagadir yigitlar orasida bu raqs turiga bo'lgan qiziqish, o'rganishishtyoqyo'qolib qolgan.

Aslida bu kichkina masala emasligiga bir misol aytay. Yoshlar, ayniqsa, o'smirlar doimo o'ziga ideal qidiradi. Bugungi O'zbekiston o'smirlarining bu jabhadagi ideali kim? Chechenlar, dog'istonliklar, gruzinlar va hokazo. Qisqasi, biz bolalarimizning did va ideallarini milliy o'zanlarimizga qaratishni eplolmayapmiz.

Eng xavotirlisi nima, bilasizmi? Vaqt o'tgani sari musiqiy tobek, orzumandalik hayotga ko'chadi, bolaning ideal jamiyat va ideal shaxs haqida tasavvurlari o'sha chechen raqqos yigitlari atrofida qolib ketadi. Yo'q, men milliy mahdudlik tarafdoi emasman, lekin har ishda me'yor bo'lishi kerak, deyman.

Xo'sh, biz bu kurashning qayeridamiz? Biz qaysi buloqlardan suv ichyapmiz? Ildizlardan uzoqlashmang, mayda narsalar katta ko'ngilsizliklarning debochasidir. Naqadar aniq va qisqa matnga ega, ajib maqola shunday emasmi? Maqolani hech bir san'atshunos emas, balki, qalami o'tkir bir jurnalist jon kuydirib yozyapti. U oddiy jurnalist bo'lishi mumkin, biroq, o'zining sohasi bilan bir

qatorda, san'at sohasini ham o'rgangan, izlangan va bu boradagi vaziyatni qisman kuzatgani bilinib turibdi. U ushbu maqolaga professional darajada yondashgan. Shu o'rinda, maqolaning sarlavhasiga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Haqiqatdan ham o'zbek raqsini unutdikmi? Menimcha yo'q. Aslida o'zbek raqsi yanada rivojlanib, yildan-yilga yangi raqs jamoalari-yu, ansamblar tashkil etilmoqda. Ular o'zlarining ijrolari bilan xalqimizning ko'nglini xushnud etib kelmoqdalar. Shu bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz liboslarimizni namoyish etib, raqs san'atiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar... Bu yerda go'zal va betakror milliy raqslarimizga nima uchun aksariyat shu soha vakillari to monidan faqat qiziqish bildirilayotgani, nega oddiy odamlar milliy raqslarimizni ijo etishga unchalik ham qiziqish bildirmayotganligi xususida gap ketmoqda. Shunday emasmi? Maqola yozayotganda, unga mavzu topishdan-da mushkul masala unga mos va xos sarlavha topa olishdir. To'g'rimi? Ammo ushbu maqolada sarlavha juda chiroqli tanlangan. Odamlar maqolani o'qishdan avval uning katta harflar bilan yozilgan sarlavhasiga ko'zi tushadi. Agar sarlavha mazkur maqola o'quvchini jalb qila olsa, bu muallifning eng katta yutug'i hisoblanadi aslida. Endi asosiy mavzuga o'tsam. Haqiqatdan ham o'zbek raqsiga oddiy odamlar tomonidan qiziqish avvalgidan kamayganmi? Odamlar haqiqatdan ham yuqorida sanab o'tilgan raqslarni ijo etishga ko'proq qiziqib, uni ko'proq ijo etmoqdalmi? Buning sababi nima deb o'ylaysiz? Bunga qarshi biron bir ish qilinishi kerakmi? "Axir bu odamlarning o'zlarining xohish va istaklari-ku, har bir damning o'zining didi, qarashlari bor, uni o'zgartirish mushkul dersiz balki?". O'ylab ko'raylik. Nima uchun odamlar o'z milliy raqsimizga emas, balki boshqa

raqslarga ko'proq qiziqish bildirmoqdalar. Menimcha, ushbu raqsga targ'ib qilish milliy raqslarimizga targ'ibotiga nisbatan kuchliroq, uni "Youtube" saytlarida ham qoshimcha effektlar, turli chiroqlar, va shu kabi narsalardan samarali va unumli foydalanylayotgani sababli ham shu holatga kelib qolining. Bundan tashqari to'y tomoshalarda ham raqqosalalar talabga qarab, aynan xorij raqslarni ijo etayotganlarida, to'yxona asosiy chiroq'ini o'chirib, sahnaga turli rangdagi chiroqlardan foydalaniib, odamlarning bor e'tiborini aynan o'sha jarayonga qarata olishi ham odamlar orasida xorij raqslarining ommalashayotganiga kichik bo'lsa-da sabab bo'imoqda. Bundan tashqari ushbu holatni ko'rgantomoshabinlar ham o'zi to'y qilmoqchi bo'lganida shu kabi raqslarni so'rab qolishi tabiiy holatdir. Bu esa raqqosa o'sha kechadagi raqsidan-da yaxshiroq va boshqacharoq, yorqin va sho'x raqs ijo etishigaturtki bo'ladi.

Bu holat esa keyinchalik xuddi zanjir kabi ularib ketaveradi. Sababi to'y-tomoshalarda qo'yiladigan raqslar aynan talab va istaklar asosida sahnalashtiriladi va ijo etiladi. Ya'ni bozor iqtisodiyoti. Talab nimaga ko'p bo'lsa, o'sha narsaga ehtiyoj oshadi va kengayadi. Shu sababli ham o'zbek milliy raqslarimizga targ'ibotni yanada kuchaytirish darkor deb hisoblayman. Shundagina biz o'zimizning milliy raqslarimizni saqlab qolish, nafaqat saqlab qolish, balki yanada ko'proq ommalashishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Bu esa, o'rnida milliy ligimiz, milliy iftixor, urf-odatlarimiz an'analarimizni asrab qolishga va milliy liboslarimizning ommalashishiga olib keladi.

Xo'sh siz nima deb o'ylaysiz? Nima uchun hozirgi kunda xorij raqslari odamlar orasida ommalashmoqda? Milliy raqslarimiz ham ommalashishi va uni yo'qolib ketmasligi uchun nimalar qilinishi kerak deb hisoblaysiz?

**Nozimaxon Po'latova  
"San'atshunoslik" ta'lif yo'nalishi  
4-kurs talabasi**

### TAHRIR HAY'ATI:

Nozim QOSIMOV  
Jahongir G'ANIYEV  
Rushana SULTONOVA  
Hulkar HAMROYEVA  
Matluba MURODOVA  
Po'lat TASHKENBAYEV  
Dildora QOSIMOVA  
Shahzoda XUDOYNAZAROVA  
Gulalsal USMONOVA

### BOSH MUHARRIR:

Shuhrat TOXTASINOV  
**BIZNING MANZIL:**  
100031, Toshkent shahri,  
Yakkasaroy tumani,  
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,  
103-uy.

### NASHR UCHUN MAS'UL

To'maris A'ZAM

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxtidan o'tkazilgan.

**Nashr indeksi: 145**  
Ofset usulida bosildi.  
Qog'oz bichimi A-3  
**Bosishga topshirish vaqt:**  
18:00  
**Bosishga topshirildi:** 21:25  
**Adadi:** 200  
Bahosi kelishgan narxda.  
**SAHIFALOVCHI:**  
Muhammadxon YUSUPOV

Gazeta tahriri kompyuterida terildi va sahifalandi.

"NISO-POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent viloyati,  
O'rta Chirchiq tumani,  
"Oq ota" MFY, Mash'al qo'rg'oni,  
Markazi ko'chasi, 1-uy.

Buyurtma:  
Hajmi 1 bosma taboq.